

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 20

<https://ejimr.org/conferences/index.php/eimrc>

Advokatura activist

Menglieva Shahnoza Bahriddin qizi

Termez State University Faculty of law

Direction of jurisprudence

Anotation: general information about the organization of the practice of law, obtaining permission in the established order and guarantees of the practice of law .

Keywords: license, law secret, law bureau, law firm, Law jury, consultation, principle of independence and legitimacy of lawyer.

Advokatura faolyati

Mengliyeva Shahnoza Bahriddin Qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakultitet

Yurisprudensiya yo`nalishi

Anotatsiya: advokatlik faoliyatini tashkillashtirish, belgilangan tartibdagi ruxsatnima olish hamda advokatlik faoliyati kafolatlari haqida umumiy ma`lumotlar

Kalit so`zlar: litsenziya, advokatlik siri, advokatlik byurosi, advokatlik firmasi, advokatlik hay`ati, maslahatxona, advokatning mustaqillik va qonuniylik prinsipi.

So`ngi yillarda olib borilayotgan islohotlar tufayli huquq sohasidagi har bir faoliyatda ko`zga ko`rinarli darajada yangilanishlar bo`lmoqda. Birgina 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini orqali Konstitutsiyamizning oltmish besh foizi o`zgartirildi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlashga, ularning huquqlarini ta`minlash ma`suliyatini burch qilib olganligini ko`rishimiz mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek:< Xalq davlat manfaatlariga emas, davlat xalq manfaatiga xizmat qilish kerak >

Darhaqiqat, fuqarolarning manfaati davlat manfaatidan ustun turmog`i lozim. Har bitta chiqarilayotgan qonun hujjatlari jamiyat manfaatlarini ifoda etmog`i lozim. Ushbu maqsadni ro`yobga chiqarish uchun buyuk jonkuyar insonlar erta-yu kech xizmat qilmoqdalar. Shu jumladan, fuqarolarga huquqiy maslahatlar orqali yordam beradigan shaxslar bu advokatlardir.

Ushbu maqolani o`qish orqali siz advokatlik faoliyatini tashkil etish tartibi, faoliyati turlari, advokat zimmasiga yuklatilgan vazifalari va qolayversa advokatlik faoliyati kafolatlarini ta`minlovchi qonun hujjatlari haqida batafsil ma`lumotga ega bo`lasiz.

Advokatlar advokaturada o`z faoliyatlarini amalga oshiradi. Advokatura – huquqiy institut bo`lib, u xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug`ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko`ngilli, kasbiy birlashmalarni o`z ichiga oladi. Advokatura O`zbekiston Respublikasi

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 20

<https://ejmr.org/conferences/index.php/eimrc>

Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi.

Yuridik sohada ta'lim olayotgan, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishni xohlovchi talabalar talaygina qismini tashkil etadi. Ulardan ushbu sohada faoliyat olib borish uchun litsenziya talab etiladi. Advokatlarga litsenziya Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyat va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi.

Endilikda oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin. Ushbu faoliyat bilan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydi.

Belgilangan tartibda litsenziya olgan shaxslar advokatlik faoliyatini o'z advokatlik buyrosini ochib amalga oshirishi, boshqa advokatlar bilan sheriklik asosida advokatlik firmasini tuzish orqali yoki a'zolikka asoslangan advokatlar hay'atini tuzushga yoxud mana shunday faoliyat olib borayotgan tuzulmalarga yoki yuridik maslaxatxonada ishlagan holda advokatlik faoliyatini amalga oshirishi ham mumkin.

Ammo advokat o'z xoxishiga asosan yakka holda faoliyatini faqat bitta advokatlik tuzulmasida ham olib borishi mumkin. Chunki advokatlik faoliyat mustaqil, nodavlat tashkiloti hisoblanadi.

Advokatlik buyrolari, advokatlik firmalari va advokatlik hay'atlarini ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, yuridik maslahatxonalarini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda adliya organlari tomonida amalga oshiriladi.

Har bir advokat o'z faoliyatining tashkilashtirgandan so'ng, qonun hujjatlarining iyerarxiyasi bo'yicha amal qilgan holda faoliyat olib borishi lozim. Ushbu qonun hujjatlari quyida ko'rsatib o'tilgan:

- ❖ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- ❖ < Advokatura to'g'risida >gi (1996-yil 27-dekabr);
- ❖ < Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida >gi (1998-yil 25-dekabr) qonunlar,

Shuningdek, Jinoyat-prosessual kodeksi, Fuqarolik-prosessual kodeksi, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi, Iqtisodiy sessual kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Qonun hujjatlarida advokatlar ushbu faoliyatdan boshqa haq to'lanadigan ishda ishlashi taqiqlanishi belgilangan. < Advokatura to'g'risidagi > qonunning 3-moddasiga advokatlar quyidagi haq to'lanadigan turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin :

- Ilmiy va pedagogik faoliyat;

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 20

<https://ejimr.org/conferences/index.php/eimrc>

- O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasidagi va uning hududiy boshqarmalaridagi faoliyat;
- Patent vakili va mediator sifatidagi faoliyat;
- Shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlarining, xo'jalik boshqaruv organlarining, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida faoliyati;
- Hakamlik sudlarida va xalqaro tijorat arbitajlarida (sudlarida) sudya sifatidagi faoliyat.

So'ngi yillarda advokatura sohasidagi islohotlar taqsiinga sazavordir. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning XXIV bobi Advokatura qilib belgilangan. Ushbu bobning 141-moddasida:

Jismoniy va yuridik shaxslarga shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi.

Advokatura faoliyatni qonuniylikni, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi.

Advokaturani tashkil etish va uning faoliyatini tartibi qonun bilan belgilanadi.

Albatta, advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri bu mustaqillik prinsipidir. Ushbu huquq O'zbekiston Respublikasi <Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokarlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida>gi qonunning 6-moddasida yanada mustahkamlanib qo'yilgan:

Advokatlarning shaxsi daxlsiz. Advokatning daxlsizligi uning uy-joyiga, xizmat xonasiga, foydalanish transpoti va aloqa vositalariga, uning xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga ham taalluqlidir.

Advokatga nisbatan jinoiy ish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo'zg'atilishi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 142-moddasi:

Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va holi uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi.

Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmatini va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhohaza qilinadi.

Ya'ni advokat va ishonch bildiruvchi o'rtasidagi suhbatni videoga olish, yoki turli xil ovoz yozdiruvchi vosital orqali eshitish mumkin emas, hatto ishonch bildiruvchi o'rdasida kelishilgan xizmat haqqi ham sir tutiladi. Buni hech kim o'z boshimchalik bilan aralashishi, so'roqqa tutilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sudda ayblanilayotgan shaxs himoyalani huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi.

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 20

<https://ejmr.org/conferences/index.php/eimrc>

Fuqarolarga, korxonaga, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish bilan advokatura shug'ullanadi.

Advokatlar ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari mumkin:

- ✓ Huquqiy xususiyatlardagi ariza, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuzish;
- ✓ Fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlar hamda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshiradi;
- ✓ Jinoiy ishlar bo'yicha surishtiruv, davtlabki tergov bosqichida va sud himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy davogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etadi;
- ✓ Tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko'rsatadi;
- ✓ Hakamlik sudida va xalqaro tijorat arbitrajlarda (sudida) vakillikni amalga oshiradi.

Advokatlar o'z faoliyatida turli vaziyatlarga duch keladi. Turli fe'l-atvorli insonlar bilan suhbatlashadi, ularning dardlariga shifo axtaradi. Insonlarning muammolariga yechim izlaydilar. Advokat o'z ishonch bildiruvchisining har bir suhbatini sir tutilishiga qat'iy amal qilishi lozim. Agarda ushbu qoidaga amal qilmagan advokatlar kasb etika qoidasi buzgan hisoblanadi va litsenziyasi bekor qilinishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Advokat o'z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari talablariga, advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etishi, o'ziga yuridik yordam so'rab murojaat etgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunga asoslangan holda faoliyat olib borishi shart.

Biroq, advokatlik sirini oshkor etmaslikni istisno holatlari mavjud. Boshqa jismoniy va yuridik shaxslar nomidan pul mablag'lari yoki mol-mulk bilan bog'liq bitimlar tayyorlaganda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

Advokatlik sohasi haqida gapirar ekanmiz Adliya organlari ushbu faoliyatni yanada rivojlantirishda xalqaro davlat tashkilotlari bilan hamkorlik ham yo'lga qo'yilgan xususan, 2023-yil 22-sentyabrda Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan MDHga a'zo davlatlar Adliya vazirligi kengashining XVII majlisi doirasida O'zbekiston adliya vaziri Akbar Toshqulov ma'ruza bilan chiqish qildi: oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan tub islohotlarda Adliya vazirligi tomonidan qilinayotgan ishlar haqida batafsil to'xtalib o'tdi

Xususan, advokatura organlarining jismoniy shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi. Sohaga zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi advokatlik tashkilotlarining davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yhatdan o'tkazish va faoliyatini tugatish, malaka imtihonlariga ariza berish, shuningdek, advokatlik faoliyati bilan uchun litsenziyani elektron shaklda berishtizimi yanada takomillashtirildi.

Vazir yangi qabul qilgan < Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida >gi qonunga ham to'xtalib o'tdi

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 20

<https://ejmr.org/conferences/index.php/eimrc>

Mazkur qonun davlat hisobidan yuridik yordam oluvchi shaxslar doirasini kengaytiradi. Shuningdek, qonunda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatlar reestrini yuritishning ochiq va shaffof mexanizmlarini joriy etish ham nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytamizki, kundan kunga yangilanishlar, yangi yangi qonunlar qabul qilinyapdi. Vaqt esa shiddat bilan harakatlanmoqda. Yilsayin insonlarning huquqiy ongi o'smoqda, ularda o'z huquqlarini bilishga intilishi va ularni poymol qilinishini oldini olishga harakat qilmoqdalar. Chunki ishalab chiqarilayotgan qonunlar harakatda, ular ishlayapdi. Bunga guvoh bo'lgan xalq ertangi kuniga yanada ishonch bilan boqmoqda. Ana shu ishonchni yanada kuchaytirishni o'ziga maqsad qilib olgan kasb sohiblaridan biri bu advokatlardir.

Bu mavzu xususida gapirarkanmiz I.A.Karimovning < Sud-huquq sohasida >gi vazifalarni ko'rsatar ekan, < Sud jarayonida ayblov va himoyaning tengligi ta'minlanish uchun advokatura idoralarining mavqeini ko'tarish darkor >,- deb qayd etgan so'zlari bu soha uchun poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi
2. O.T.Husanov <Konstitutsiyaviy huquq> Toshkent 2020
3. < Advokatura to'g'risida >gi (1996-yil 27-dekabr);
4. < Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida >gi (1998-yil 25-dekabr) qonunlar,
5. < Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida>gi qonun